MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

jild. 3 No 3 (2026)



MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

MENEJMENT VA IQTISODIYOT ILMIY-TADQIQOT JURNALI

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ

journals@timeedu.uz

+998 95 651 90 00

MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

+998 95 651 90 00
@tmii_journal
journals.timeedu.uz
journals@timeedu.uz
Shota Rustaveli ko'chasi, 114

Bosh muharrir:
Narbayev Sharafatdin Kengeshovich
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Norbekov Shohzod Mamarasul o‘g‘li

Tahrir hay’ati:

1.Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – Toshkent davlat iqtisodiyotuniversiteti rektori, t.f.d., professor.;
2.Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – O‘zbekiston Fanlar akademiyasiakademigi, i.f.d, professor;
3.Turakulov Otabek Xolmirzayevich – Toshkent menejment va iqtisodiyotinstituti Akademik va ilmiy faoliyat bo‘yicha prorektori, t.f.f.d., dotsent;
4.Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich – Toshkent menejment va iqtisodiyotinstituti Ilmiy ishlar bo‘limi boshlig‘i i.f.n., dotsent;
5.Chariyev Kurban Amirovich Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti“Iqtisodiyot” kafedrasi professori, if.d.;
6.Xotamov Ibodullo Sadulloyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyotinstituti “Iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.n.;
7.Saidaxmedova Nodira Ilhomovna — Toshkent davlat iqtisodiyotuniversiteti, “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi professori, i.f.d.;
8.Sultanov Mansur Qilichovich – O‘zbekiston Respublikasi PrezidentiAdministratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligiekspertlar guruhi rahbari, t.f.f.d., dotsent;
9.Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich – “Toshkent irrigatsiya va qishloqxo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti“ Milliy adqiqotuniversiteti professori, i.f.d.;
10.Popkova Yelena Gennadyevna – Rossiya Federatsiyasi avtonom notijorattashkiloti “Ilmiy kommunikatsiyalar instituti” prezidenti, i.f.d, professor;
11.Dr Goh Khang Wen – Malaziyaning INTI Xalqaro universiteti prorektori;
12.Wang Cheng – XXR “Hebei Institute of Mechanical and ElectricalTechnology” institute, i.f.f.d., dotsent;
13.Gofirov Azim Jumaevich – Toshkent davlat agrar universiteti otsenti,q.x.f.f.d.;
14.Xakimova Nilufar Karimkulovna – O‘zMU huzuridagi Yarimo‘tkazgichlarfizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi,f-m.f.f.d,;

15.Toirov Shuxrat Abduganiyevich – – Toshkent menejment va iqtisodiyotinstituti “Muhandislik va axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri, t.f.f.d.,dotsent;
16.Mamatov Narzullo Solidjonovich- “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti“ Milliy tadqiqotuniversiteti kafedra mudiri, t.f.d., professor;
17.Yakubov Sadirjan Bakiyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot institutiIjtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi professori, f.f.n.;
18.Anarkulova Gulnaz Mirzaxmatovna – Toshkent menejment va iqtisodiyotinstituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi professori, i.f.n.; 19.Abduraimova Nigora Radjabovna – Toshkent menejment va iqtisodiyotinstituti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.;
20.Kadirova Istora Bobirovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot institutiKaryera markazi direktori, i.f.f.d., dotsent.
21.Yusupov Rustam Abdimuratovich – Toshkent menejment va iqtisodiyotinstituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.;
22.Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi – Toshkent davlat iqtisodiyot universitetidoktoranti, i.f.f.d., dotsent;
23.Nazarov Xolmo‘min Abduxobovich – Toshkent menejment va iqtisodiyotinstituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti, f.m.f.n.;
24. Olimov Sodiq Anvar o’g’li – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti“Muhandislik va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.;
25. Asrayev Muhammadmullo Abdulla o‘g‘li- Toshkent menejment vaiqtisodiyot instituti “Muhandislik va axborot texnologiyalari” kafedrasi,dotsenti, t.f.f.d.;
26.Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna - Toshkent menejment vaiqtisodiyot instituti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.;
27.Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyotinstituti “Biznes boshqaruvi va moliya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, t.f.f.d.;

Texnik xodim: Azimova Durdona Azam qizi

MUNDARIJA

Чертовицкий А.С, Нарбаев Ш.К, Ахмаджонова Ш	Оценка эффективности использования земель сельскохозяйственного назначения в регионе: методический аспект	5
Вахобов А.Р	Агросуғуртанинг халкаро стандартларини жорий этиш масалалари	16
Mamatov M.N	Sport sohasini moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari	21
Primova Sh.K	Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning audit sifatiga ta'siri	33
Abdirakhmonov A.T	Appreciative leadership and its importance in organization development (od)-application to uzbekistan	42
Каландаров А. Б	Банкларнинг муаммоли кредитлар билан ишлаш амалиётини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари	49
Mamajonova M.M	Impact without mass: divergent research signals for Uzbek universities in the THE and QS World University Rankings 2027	58
Saidaxmedova N.I, Norbekova N.M	Postindustrial transformatsiya sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning nazariy-metodologik kategoriyalari, mezonlari va indikatorlari	72
Sharipov Sh.X	Respublika va xorijda qo’llanilayotgan purkagichlar konstruksiyalarining tahlili va yangi model uchun optimal turini tanlash	81

BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISHNING AUDIT SIFATIGA TA'SIRI

Primova Shaxnoza Komiljonovna
Toshkent menejment va iqtisodiyot institute "Biznes boshqaruvi va moliya" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD
Email:shahnozakomiljonovna1@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada buxgalteriya hisobini axborot tizimlarida avtomatlashtirishning audit sifatiga ta'siri o'rganiladi. Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan sharoitda hisob jarayonlari dasturiy ta'minotda yuritilmoqda, bu esa auditning mazmuni, usullari va tekshiruv xavflarini o'zgartirmoqda. Tadqiqotda korxona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, hisobdor shaxslar va kontragentlar bilan hisob-kitoblar, bank va kassa operatsiyalari, asosiy vositalar hamda hisobot davrini yopish jarayonlari audit nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Avtomatlashtirishning afzalliklari (to'liq tekshiruv imkoniyati, ishlov berish tezligi, operatsiyalar izining saqlanishi) bilan bir qatorda uning xavflari (foydalanuvchi huquqlarining noto'g'ri taqsimlanishi, qo'lda tuzatishlar, boshlang'ich ma'lumotlarning xato kiritilishi) aniqlanadi. Natijalar asosida audit sifatini oshirish bo'yicha takliflar, jumladan ichki nazorat matritsasi va hisobot davrini yopishdan oldingi tekshiruv ro'yxati ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, axborot tizimlari, avtomatlashtirish, audit sifati, ichki nazorat, hisobot davrini yopish.

Abstract: This article examines how automating accounting in information systems affects audit quality. As digital technologies spread, accounting processes are increasingly run in specialized software, which changes the content, methods, and risks of audit procedures. The study analyzes, from an audit perspective, the formation of the enterprise database, settlements with accountable persons and counterparties, bank and cash operations, fixed assets, and period-end closing. It identifies the benefits of automation (full-population testing, processing speed, a preserved audit trail) alongside its risks (improper allocation of user access rights, manual adjustments, errors in opening data entry). Based on the findings, recommendations are developed, including an internal control matrix and a pre-closing checklist.

Key words: accounting, information systems, automation, audit quality, internal control, period-end closing.

Аннотация: В статье исследуется влияние автоматизации бухгалтерского учёта в информационных системах на качество аудита. В условиях цифровизации учётные процессы всё чаще ведутся в программных продуктах, что меняет содержание, методы и риски аудиторской проверки. С

позиции аудита рассматриваются формирование базы данных предприятия, расчёты с подотчётными лицами и контрагентами, банковские и кассовые операции, основные средства и закрытие отчётного периода. Выявлены преимущества автоматизации (сплошная проверка, скорость обработки, сохранение следа операций) и риски (неверное распределение прав доступа, ручные корректировки, ошибки ввода исходных данных). Разработаны предложения, включая матрицу внутреннего контроля и чек-лист проверки перед закрытием периода.

Ключевые слова: бухгалтерский учёт, информационные системы, автоматизация, качество аудита, внутренний контроль, закрытие отчётного периода.

KIRISH

Bugungi kunda ko'pchilik korxonalarda hisob yuritish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish va hisobotlarni shakllantirish maxsus dasturiy ta'minotda amalga oshiriladi, hisob yuritishning umumiy tartibi esa «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun bilan belgilanadi [1]. Avtomatlashtirish qo'lda ishlash bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi, hisobot tayyorlash vaqtini qisqartiradi, ammo yangi xavflarni ham keltirib chiqaradi: ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, tizim sozlamalaridagi xatolar va qo'lda kiritilgan tuzatishlar hisobot ishonchliligiga bevosita ta'sir qiladi [2].

Kommunal xizmat ko'rsatish va uy-joy boshqaruv tashkilotlarida hisob yuritish o'ziga xos xususiyatga ega: bu korxonalar ko'p sonli kontragent bilan ishlaydi, muntazam to'lovlar va katta hajmdagi kichik operatsiyalarni qayd etadi. Bunday sharoitda barcha operatsiyalarni qo'lda tekshirish amalda imkonsiz, avtomatlashtirilgan tizimda esa nazorat zaif bo'lsa, xato tez ko'payadi va hisobotga o'tib ketadi.

Axborot tizimi sharoitida auditor tanlama tekshiruv bilan cheklanib qola olmaydi. Xalqaro audit standartlariga ko'ra, u mijozning axborot texnologiyalari muhitini va umumiy IT-nazoratlarni ham tushunishi hamda baholashi lozim [3]. Shu sababli audit sifati endi faqat auditorning malakasiga emas, balki hisob tizimining qanday sozlangani va nazorat nuqtalari qanchalik joriy etilganiga ham bog'liq.

Avtomatlashtirilgan hisob yuritilayotgan korxonalarda auditni tashkil etish metodikasi, ayniqsa yuqorida aytilgan sohalarda, yetarlicha ishlab chiqilmagan: mavjud tavsiyalar odatda umumiy xarakterga ega bo'lib, hisob yuritishning aniq bosqichlari (boshlang'ich qoldiqlarni kiritish, hisobdor shaxslar va kontragentlar bilan hisob-kitoblar, asosiy vositalar, hisobot davrini yopish) bo'yicha audit xavflarini alohida ko'rsatmaydi. Bu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning audit sifatiga ta'sirini aniqlash va auditni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti axborot tizimlarida yuritiladigan buxgalteriya hisobi jarayonlari, predmeti esa shu jarayonlarning auditi hamda unga ta'sir etuvchi

xavflardir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: avtomatlashtirilgan hisob va audit o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy asoslash; hisob jarayonlari bosqichlari bo'yicha audit xavflarini aniqlash va ularning ahamiyat darajasini baholash; ichki nazorat nuqtalarini belgilash va amaliy takliflar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Audit sifati masalasi xorijiy adabiyotda uzoq vaqtdan beri o'rganilgan. DeAngelo (1981) audit sifatini auditorning xatoni topish va uni hisobotda ochib berish ehtimoli sifatida ta'riflagan [4]. Bu ta'rifdan ikki xulosa kelib chiqadi: sifat auditorning texnik imkoniyatiga (xatoni topish) ham, mustaqilligiga (xatoni ochib berish) ham bog'liq. Francis (2004) audit sifatini o'lchashning murakkabligini ko'rsatib, uni kirish ma'lumotlari, jarayon va natija ko'rsatkichlari orqali baholashni tavsiya qilgan [5]. Auditning umumiy metodologiyasi, xavflarni baholash va dalil to'plash tartibi Arens, Elder va Beasley darsligida yoritilgan [6].

Axborot tizimlari sharoitidagi audit yo'nalishida Vasarhelyi va Halper (1991) uzluksiz audit tushunchasini asoslagan, ya'ni tekshiruvni yillik tadbirdan doimiy jarayonga aylantirish g'oyasini ilgari surgan [7]. Alles, Kogan va Vasarhelyi (2008) bu g'oyani amaliy tajribalar asosida ko'rib chiqib, uni joriy etishdagi muammolarni yoritgan [8]. Debreceny va hammualliflari (2005) ERP tizimlariga o'rnatilgan audit modullarini tahlil qilgan [9]. Vasarhelyi, Kogan va Tuttle (2015) katta ma'lumotlarning hisob va audit amaliyotiga ta'sirini [10], Appelbaum, Kogan va Vasarhelyi (2017) esa tahlil usullarining audit jarayonidagi o'rni va kelgusi tadqiqotlar yo'nalishlarini yoritgan [11]. Kokina va Davenport (2017) avtomatlashtirish va sun'iy intellekt auditorlik kasbini qanday o'zgartirayotganini ko'rsatgan [12].

Axborot tizimlaridagi nazorat odatda ikki turga bo'linadi: umumiy nazorat (foydalanuvchi huquqlari, tizimga o'zgartirish kiritish tartibi, ma'lumotlarni zaxiralash) va ilovaviy nazorat (ma'lumotni kiritish, ishlov berish va chiqarish bosqichlaridagi tekshiruvlar) [2, 3]. Ichki nazoratning umumiy asosi sifatida COSO tizimi qo'llanadi [13], auditorning baholangan xavflarga javobi va audit dalillari bo'yicha talablar esa ISA 330 [14] hamda ISA 500 [15] standartlarida berilgan.

Mavjud tadqiqotlarda asosiy e'tibor umumiy nazariya, uzluksiz audit va yirik korxonalardagi ERP tizimlariga qaratilgan. Hisob yuritishning aniq bosqichlari bo'yicha audit xavflarini tizimlashtirish va ularni kommunal sohadagi korxonalar uchun moslashtirish yetarli o'rganilmagan. Maqola shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy asosini audit va axborot tizimlari bo'yicha ilmiy ishlar [4-12], milliy qonunchilik [1] hamda xalqaro standartlar [3, 14, 15] tashkil etdi. Tadqiqot bir necha bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda nazariy tahlil va sintez

orqali audit sifati hamda avtomatlashtirilgan hisobga oid asosiy tushunchalar aniqlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda tizimli yondashuv qo'llanib, hisob yuritish jarayoni o'zaro bog'liq bosqichlar sifatida ko'rib chiqildi: korxona ma'lumotlarini shakllantirish, boshlang'ich qoldiqlarni kiritish, kadrlar ma'lumotlar bazasi, bank va kassa operatsiyalari, asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, ishlar va xizmatlar, ishlab chiqarish, hisobdor shaxslar va kontragentlar bilan hisob-kitoblar hamda hisobot davrini yopish. Uchinchi bosqichda qiyosiy tahlil yordamida qo'lda va avtomatlashtirilgan hisobdagi audit imkoniyatlari taqqoslandi. To'rtinchi bosqichda har bir jarayon bo'yicha xato va suiiste'mollik yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nuqtalar aniqlanib, ularning ahamiyati kasbiy mulohaza asosida sifat jihatdan baholandi. Yakunda modellashtirish usuli bilan ichki nazorat matritsasi va hisobot davrini yopishdan oldingi tekshiruv ro'yxati ishlab chiqildi.

Tahlil buxgalteriya hisobi axborot tizimlarida ishlash bo'yicha o'quv materiallari va tipik hisob jarayonlariga asoslandi. Ahamiyat darajasi bahosi statistik ma'lumotga emas, muallifning kasbiy mulohazasiga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qo'lda va avtomatlashtirilgan hisobda audit imkoniyatlarining qiyosiy tahlili

Avtomatlashtirilgan hisobda audit sifati ikki omilga bog'liq: tizimning to'g'ri sozlanganligi va nazorat nuqtalarining joriy etilganligi [2, 13]. Qo'lda va avtomatlashtirilgan hisob sharoitida audit xususiyatlari 1-jadvalda taqqoslangan.

1-jadval. Qo'lda va avtomatlashtirilgan hisobda auditning xususiyatlari

Mezon	Qo'lda hisob	Avtomatlashtirilgan hisob
Tekshiruv qamrovi	Asosan tanlama	To'liq tekshiruv imkoniyati bor [8, 11]
Xato xususiyati	Alohida yozuvda qoladi	Sozlama xatosi butun tizimga tarqaladi
Audit dalili	Qog'oz hujjatlar, imzolar	Elektron yozuvlar, o'zgarishlar jurnali [15]
Asosiy xavf manbai	Hisoblash va ko'chirish xatolari	Kirish huquqlari, qo'lda tuzatishlar, sozlamalar
Tekshiruv vaqti	Davr yakunida	Doimiy yoki davriy [7]
Auditordan talab	Hisob bilimi	Hisob va IT-muhitni tushunish [3]

Hisob jarayonlari bo'yicha afzalliklar va xavflar

Hisob yuritish bosqichlari bo'yicha tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Hisob jarayonlari bo'yicha afzalliklar va audit xavflari

Jarayon	**Afzalligi**	**Asosiy audit xavfi**
Korxona ma'lumotlari, hisob siyosati	Sozlama barcha operatsiyaga qo'llanadi	Noto'g'ri sozlama butun hisobotni buzadi
Boshlang'ich qoldiqlar	Balans bilan avtomatik solishtiriladi	Xato qoldiq keyingi davrlarga o'tadi
Kadrlar bazasi	Ish haqi va soliq bir manbadan olinadi	"O'lik jonlar", noto'g'ri tarif
Bank va kassa	Tezkor solishtirish, to'lovlar izi	Takroriy yoki soxta to'lov, limit nazoratining yo'qligi
Asosiy vositalar	Eskirish avtomatik hisoblanadi	Noto'g'ri xizmat muddati, hisobdan chiqarish xatolari
Tovar, ish va xizmatlar	Hujjat va yozuv bog'langan	Narx va miqdor xatosi, hujjatsiz harakat
Ishlab chiqarish	Xarajat bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi	Xarajatni noto'g'ri taqsimlash, tannarx buzilishi
Hisobdor shaxslar, kontragentlar	Qarzdorlik tahlili tezlashadi	Dublikat kontragent, yopilmagan avans
Hisobot davrini yopish	Yakuniy hisobotlar tez shakllanadi	Davrni qayta ochish, qo'lda tuzatishlar

Sozlama va boshlang'ich ma'lumotlar bosqichi. Hisob siyosati, hisoblar rejasi va nomenklatura sozlamalari bir marta kiritilib, keyin barcha operatsiyalarga qo'llanadi. Bu hisobning bir xilligini ta'minlaydi, lekin sozlamadagi xato (masalan, noto'g'ri hisob yoki soliq stavkasi) har bir operatsiyada takrorlanadi. Boshlang'ich qoldiqlarning noto'g'ri kiritilishi ham shunga o'xshash: xato keyingi davrlarga o'tadi va uni topish qiyinlashadi. Shu sababli auditor birinchi navbatda sozlamalar o'zgarishi jurnalini va boshlang'ich qoldiqlarning balans bilan mosligini tekshirishi kerak [3, 9].

Pul mablag'lari va hisob-kitoblar bosqichi. Bank va kassa operatsiyalarida tizim to'lovlar izini saqlaydi va bank ko'chirmasi bilan tezkor solishtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ikki bosqichli tasdiqlash bo'lmasa, takroriy yoki asossiz to'lov o'tkazilishi xavfi saqlanadi. Hisobdor shaxslar va kontragentlar bo'yicha avtomatlashtirish qarzdorlik tahlilini tezlashtiradi, biroq bir kontragentning bir necha marta kiritilishi (dublikat) va muddatida yopilmagan avanslar hisob-kitoblar ishonchliligini pasaytiradi.

Aktivlar va xarajatlar bosqichi. Asosiy vositalar bo'yicha eskirish avtomatik hisoblanadi, ammo hisob natijasi dastlab kiritilgan foydali xizmat muddati va qiymatiga to'liq bog'liq. Tovar-moddiy boyliklar va xizmatlar bo'yicha hujjat va hisob yozuvi o'zaro bog'langan bo'lsa-da, narx yoki miqdorning noto'g'ri kiritilishi tannarxga ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini bo'limlar bo'yicha taqsimlash tizimda avtomatik bajariladi, lekin taqsimlash bazasi noto'g'ri tanlansa, tannarx tizimli ravishda buziladi. Kadrlar bazasida esa mavjud bo'lmagan xodim yoki noto'g'ri tarif ish haqi va soliq hisobiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

Hisobot davrini yopish bosqichi. Yopish ketma-ketligi va yakuniy hisobotlar avtomatik shakllanadi, bu vaqtni tejaydi. Lekin yopilgan davrni qayta ochish va qo'lda kiritilgan tuzatishlar eng sezgir nuqta hisoblanadi: aynan shu yerda hisobotga nazoratsiz o'zgartirish kiritilishi mumkin. Auditor uchun bu bosqichda qo'lda yozuvlar ro'yxati va davr yopilgandan keyingi o'zgarishlar jurnali asosiy dalil hisoblanadi [14, 15].

Xavflarning ahamiyat darajasi

Aniqlangan xavflar kasbiy mulohaza asosida ehtimollik va ta'sir bo'yicha baholandi (3-jadval).

3-jadval. Audit xavflarining ahamiyat darajasi (muallifning sifat bahosi)

Xavf	**Ehtimollik**	**Ta'sir**	**Daraja**
Hisob siyosati sozlamasidagi xato	past	yuqori	yuqori
Boshlang'ich qoldiqlardagi xato	o'rta	yuqori	yuqori
Foydalanuvchi huquqlarining noto'g'ri taqsimlanishi	yuqori	yuqori	yuqori
Bank va kassa bo'yicha asossiz to'lov	o'rta	yuqori	yuqori
Davrni qayta ochish, qo'lda tuzatishlar	o'rta	yuqori	yuqori
Dublikat kontragent, yopilmagan avans	yuqori	o'rta	yuqori
Kadrlar bazasidagi noto'g'ri ma'lumot	o'rta	o'rta	o'rta
Asosiy vositalar eskirishidagi xato	o'rta	o'rta	o'rta

Xavf	Ehtimollik	Ta'sir	Daraja
Tovar-moddiy boyliklar va ishlab chiqarish xarajatlaridagi xato	o'rta	o'rta	o'rta

Tahlil natijalari

Tahlil quyidagi natijalarni ko'rsatdi. Birinchidan, avtomatlashtirish tanlama tekshiruvdan to'liq tekshiruvga o'tish imkonini beradi: auditor barcha operatsiyalarni mezonlar bo'yicha filtrlashi mumkin [8, 11]. Ikkinchidan, xatolar tarqalish xususiyatiga ega: sozlama yoki boshlang'ich qoldiqdagi xato butun tizim bo'ylab ko'payadi, shuning uchun audit tizim sozlamalarini tekshirishdan boshlanishi kerak [3, 9]. Uchinchidan, yuqori darajali xavflarning ko'pchiligi foydalanuvchi huquqlari, qo'lda tuzatishlar va yopilgan davrni qayta ochish bilan bog'liq, ya'ni nazorat muhiti bilan [13]. To'rtinchidan, operatsiyalar izi auditorga qo'shimcha dalil beradi, lekin faqat o'zgarishlar jurnali yoqilgan va saqlansa [15]. Beshinchidan, kommunal sohadagi korxonalarda kontragentlar ko'pligi sababli dublikat va yopilmagan avanslar xavfi alohida e'tibor talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish audit sifatiga ikki yo'nalishda ta'sir qiladi. Bir tomondan, u to'liq tekshiruv, tezkorlik va operatsiyalar izini saqlash imkonini beradi. Boshqa tomondan, sozlama, boshlang'ich qoldiq va foydalanuvchi huquqlaridagi xatolar butun hisob bo'ylab tarqaladi. Shu sababli avtomatlashtirilgan muhitda audit sifati auditor malakasi bilan bir qatorda hisob tizimining sozlanishi va ichki nazorat darajasiga ham bog'liq. Eng yuqori xavf sozlamalar, boshlang'ich qoldiqlar, kirish huquqlari, qo'lda tuzatishlar va hisobot davrini yopish bosqichlarida to'planadi.

Audit sifatini oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi. Birinchidan, auditni tizim sozlamalarini (hisob siyosati, hisoblar rejasi, nomenklatura, foydalanuvchi huquqlari) tekshirishdan boshlash, chunki bu bosqichdagi xato barcha keyingi operatsiyalarga ta'sir qiladi. Ikkinchidan, vazifalarni ajratish: hujjatni kiritgan, tasdiqlagan va to'lovni o'tkazgan xodim turli shaxslar bo'lishi kerak. Uchinchidan, o'zgarishlar jurnalini doimiy yoqib, uni auditorga ochiq qilish. To'rtinchidan, yopilgan davrni qayta ochishni faqat yozma ruxsat bilan cheklash. Beshinchidan, 4-jadvalda keltirilgan ichki nazorat matritsasini joriy etish.

4-jadval. Ichki nazorat matritsasi (taklif)

Jarayon	Nazorat usuli	Mas'ul
Hisob siyosati	Yozma buyruq, o'zgarishlar jurnali	Bosh buxgalter
Boshlang'ich qoldiqlar	Balans bilan solishtirish dalolatnomasi	Bosh buxgalter, auditor

Jarayon	Nazorat usuli	Mas'ul
Kadrlar bazasi	Buyruqlar bilan oylik solishtirish	Kadrlar bo'limi, buxgalter
Bank va kassa	Ikki bosqichli tasdiqlash, ko'chirma bilan solishtirish	Moliya xodimi, rahbar
Asosiy vositalar	Inventarizatsiya, eskirishni tekshirish	Mas'ul shaxs, buxgalter
Tovar-moddiy boyliklar	Inventarizatsiya, hujjatsiz harakatni cheklash	Ombor mudiri
Ishlab chiqarish	Taqsimlash bazasini tasdiqlash	Iqtisodchi
Kontragentlar, hisobdor shaxslar	Oylik akt solishtirish, avans hisobotini muddatida yopish	Buxgalter
Davrni yopish	Yozma ruxsat, tekshiruv ro'yxati	Bosh buxgalter

Hisobot davrini yopishdan oldingi tekshiruv ro'yxati quyidagi bandlarni o'z ichiga olishi lozim: barcha birlamchi hujjatlar kiritilgan va tasdiqlangan; bank va kassa qoldig'i hisob ma'lumotlariga mos; hisobdor shaxslarning avans hisobotlari yopilgan; kontragentlar bilan solishtirish aktlari tuzilgan; asosiy vositalar eskirishi hisoblangan; ishlab chiqarish xarajatlari taqsimlanib, tannarx hisoblangan; ish haqi va soliqlar kadrlar ma'lumotlariga mos; qo'lda kiritilgan tuzatishlar ro'yxati ko'rib chiqilgan; sinov balansi va oborot qaydnomasi tekshirilgan; yopishdan keyin davr qulflangan va mas'ul shaxs tasdiqlagan.

Taklif etilgan nazorat matritsasi va tekshiruv ro'yxati kommunal xizmat ko'rsatish va uy-joy boshqaruv tashkilotlarida audit tizimini takomillashtirishda qo'llanishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda ularni aniq korxona ma'lumotlarida sinab ko'rish va xavflar bahosini miqdoriy ma'lumotlar bilan tasdiqlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. 13.04.2016 y., O'RQ-404-son (2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-son Qonuni bilan kiritilgan o'zgartirishlar bilan).
2. Romney M.B., Steinbart P.J. Accounting Information Systems. – Pearson.
3. IAASB. ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement.
4. DeAngelo L.E. Auditor size and audit quality // Journal of Accounting and Economics. 1981. Vol. 3, No. 3.

5. Francis J.R. What do we know about audit quality? // The British Accounting Review. 2004. Vol. 36, No.4.
6. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. – Pearson.
7. Vasarhelyi M.A., Halper F.B. The continuous audit of online systems // Auditing: A Journal of Practice & Theory. 1991. Vol. 10, No. 1.
8. Alles M., Kogan A., Vasarhelyi M. Putting continuous auditing theory into practice: Lessons from two pilot implementations // Journal of Information Systems. 2008. Vol. 22, No. 2.
9. Debreceny R., Gray G.L., Ng J.J.-J., Lee K.S.-P., Yau W.-F. Embedded audit modules in enterprise resource planning systems // Journal of Information Systems. 2005. Vol. 19, No. 2.
10. Vasarhelyi M.A., Kogan A., Tuttle B.M. Big Data in Accounting: An Overview // Accounting Horizons. 2015. Vol. 29, No. 2.
11. Appelbaum D., Kogan A., Vasarhelyi M.A. Big Data and analytics in the modern audit engagement: Research needs // Auditing: A Journal of Practice & Theory. 2017. Vol. 36, No. 4.
12. Kokina J., Davenport T.H. The emergence of artificial intelligence: How automation is changing auditing // Journal of Emerging Technologies in Accounting. 2017. Vol. 14, No. 1.
13. COSO. Internal Control – Integrated Framework. 2013.
14. IAASB. ISA 330: The Auditor's Responses to Assessed Risks.
15. IAASB. ISA 500: Audit Evidence.

Ingliz tili muharriri: Norbekov Shohzod Mamarasul o‘g‘li
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Azimova Durdona Azam qizi

2026. № 3

© Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El. pochta: journals@timeedu.uz
Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024 yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639
PNFL: 308906510

Manzilimiz: *Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani Shota Rustaveli ko'chasi, 114*